



PARKENT TUMANI O'SMIR YOSHDAGI MAKTAB O'QUVCHILARINING FIZIOLOGIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.

Kuvandikova Yulduz Ravshan qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7112172>

ARTICLE INFO

Received: 20th September 2022

Accepted: 22nd September 2022

Online: 26th September 2022

KEY WORDS

Toshkent viloyatida ecologic toza va ecologic ifloslangan hududlarda istiqomat qiluvchi . o'smirlarning morfofunktsional xususiyatlarini o'rganish.

ABSTRACT

Xozirgi vaktida butun dunyoda atrof-muhitning xar xil antropogen tasirlaridan aholi salomatligini saqlash, rivojlanib kelayotgan yosh avlodning sog'lom turmush tarzini yaxshilash hamda uning nazariy asoslarini tadqiq qilish miqyosida dolzarb masala kasb yetmoqda. Shuningdek, o'smirlar sog'ligining yomonlashuvi, voyaga yetmaganlar organizmsining yurak-qon tomir va boshqa funksional tizimlari kasalliklari paydo bo'lishi mutaxassislarni havotirga solmoqda. Shu sababli, turli ecologic sharoitda o'smirlarning morfofunktsional xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlar o'sib kelayotgan yosh avlod sog'ligini saqlash, kasalliklarning oldini olish va salomatlikni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish muxim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muammoning dolzabligi va zaruriyati.

Xozirgi vaktida butun dunyoda atrof-muhitning xar xil antropogen tasirlaridan aholi salomatligini saqlash, rivojlanib kelayotgan yosh avlodning sog'lom turmush tarzini yaxshilash hamda uning nazariy asoslarini tadqiq qilish miqyosida dolzarb masala kasb yetmoqda. Shuningdek, o'smirlar sog'ligining yomonlashuvi, voyaga yetmaganlar organizmsining yurak-qon tomir va boshqa funksional tizimlari kasalliklari paydo bo'lishi mutaxassislarni havotirga solmoqda. Shu sababli, turli ecologic sharoitda o'smirlarning morfofunktsional xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlar o'sib kelayotgan yosh avlod sog'ligini saqlash,

kasalliklarning oldini olish va salomatlikni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish muxim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi: Toshkent viloyatida ecologic toza va ecologic ifloslangan hududlarda istiqomat qiluvchi . o'smirlarning morfofunktsional xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqot metodlari: so'rov anketa, somatometrik, fiziometrik, statistik.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: o'smirlarning morfometrik ko'rsatkichlar ekologik toza va ekologik toza bo'lmagan hududlarda o'ziga hos. Morfofiziologik jihatdan Parkent viloyatidagi o'smirlarning ko'rsatkichlari



Toshkent shahrida yashovchilarga nisbatan me'yorga yaqin. Jinsiy rivojlanishi esa viloyatda kech boshlansa ham 15 yoshga borganda shaharliklar bilan tenglashadi.

Kalit so'zlar: O'smirlar; morfofologiya; Sentil jadvali; tana massa indeksi.

Tashkent. Sexual development, even if it starts late in the region, is equal to that of urban dwellers by the age of 15.

Key words: puberty, morphophysiology, Sentel's chart, indeks body weight.

Tana massasi, bo'y uzunligi va jinsiy ko'rsatkichlar organizmning asosiy sog'lomlik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bo'lib hisoblanadi. Bu parametrlarning rivojlanishi organizmning irsiy ya'ni genetik materialiga bog'liq bo'lsada, ko'proq tashqi muhit omillari bu ko'rsatkichlarning rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazadi. Organizmning reproduktiv salomatligi ko'p jihatdan uning jinsiy rivojlanish xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ularning o'sish va rivojlanish tempi ham har jihatdan bir - birga bog'langan.

Material va metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida 12 dan 15 yoshgacha bo'lgan 165 nafar Toshkent shahri va Parkent tumanidagi o'smir yoshdagi maktab o'quvchi qizlari olindi. Tadqiqotlar maktab shifokori hamda maktab hamshirasi nazorati ostida maxsus steril xonada o'tkazildi. Tekshiruvlar 2021-yilning kuz faslida olib borildi. O'smir qizlarning asosiy somotometrik ko'rsatkichlari (bo'y uzunligi, tana massasi) va ikkilamchi jinsiy xususiyatlarining rivojlanish darajalari aniqlandi. Shuningdek, tadqiqotlarimiz etika qonun qoidalariga to'la javob bergan holda, qizlarning o'zidan yozma rozilik xati hamda ota -

onalarning ruxsati asosida o'tkazildi. Gormonal fiziologik rivojlanish bosqichlari hamda uni baholash Butunjahon Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan standartlar asosida tahlil qilindi. Bunda standart og'ishlarga asoslangan meridional variatsion qatarga ko'ra o'smir qizlarning fiziologik rivojlanish (FR) darajalari 5 ga bo'linib tahlil qilinadi. Shunga ko'ra FR: <<quyi>>, <<ortachadan pastroq>>, <<ortacha>>, <<ortachadan yuqori>>, <<baland>> deb baholanadi.

Bo'y uzunligi hamda tana massasining o'zaro muvofiqligi tana massa indeksi (TMI) yordamida baholandi. U quyidagicha hisoblab topiladi: tana massasi (kg) /tana yuzasining sathi (m^2). TMI Sentil shkalasi asosida baholanganda, FR: normal gormonal faollik (25-75 sentil), vazn yetishmasligi hisobiga gormonall faollik kamligi (5-25 sentil), ozuqa yetishmasligi hisobiga o'ta ozg'inlik (5 sentil), ortiqcha vazn hisobiga gormonal faollik kamligi (75-95 sentil), semizlik (95 sentil). Natijalarni statistik baholash esa, maxsus Styudent jadvali asosida bo'ldi. Bunda natijalar $p < 0,05$ bo'lsa statistik jihatdan muqarrar deb topildi.

Natijalarni statistik baholash

Balog'at yoshi davrida o'smir qizlar organizmining normada rivojlanishi kelajakda sog'lom va yetuk ayol bo'lib yetilishida katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, o'smir qizlarning somotometrik ko'rsatkichlarining bir tekisda rivojlanishi balog'atga yetish va menarxening yuzaga kelishiga katta omil bo'lib xizmat qiladi. Biz o'smirlarning somotometrik ko'rsatkichlari yuzasidan tadqiqotlar o'tkazdik. Tana massasi va



bo'y uzunligi maktabdagi o'smir qizlarda
umumbiologik qonuniyatlarga muvofiq

yosh ortgan sari ortib borganini
kuzatdik.

Parkent tumani	Bo'yi (sm)	Massa (kg)
Yoshi	M ± m	M ± m
12,10±1,25	146,20 ± 1,00	37,33 ± 0,52
13,05±2,07	155,80 ± 1,37	54,13 ± 4,01
14,50±1,25	160,67 ± 1,68	59,53 ± 8,06
15,20±2,13	162,73 ± 3,22	61,60 ± 1,47

12 yoshli maktab o'quvchilarining o'rtacha bo'y uzunligi $146,20 \pm 1,00$ smni tashkil qildi, 15 yoshda $162,73 \pm 3,22$ smni tashkil qildi. Bo'y uzunligi yildan-yilga ortgan ammo, yillik o'sish miqdori kamayib borgan. Xususan, 12 yoshdan 13 yoshga o'tganda yillik o'sish 9,6 sm; 13 yoshdan 14 yoshga o'tib 4,87 sm; 14 yoshdan 15 yoshga o'tganda esa 2 smga o'sgan. Xuddi shunday tana massasi ham yildan-yilga ortib bordi: 12 yoshda $37,33 \pm 0,52$ kg bo'lgan bo'lsa, 15 yoshda $59,60 \pm 1,47$ kg ni tashkil qildi. Ammo, yillik vazn ortish miqdori kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, 12 yoshdan 13 yoshga o'tib 16,8 kg vazn qo'shilgan bo'lsa, 13 yoshdan 14 yoshga o'tib 5,4 kg vazn ortdi; 14 dan 15 yoshga o'tib bor yo'g'i 2,07 kg vazn ortishi kuzatildi xolos.

Sentil jadvaliga ko'ra olingan natijalarga asoslanadigan bo'lsak, Parkent tumanidagi o'smir qizlarda ko'pchilik foizni bo'yi baland bo'lmagan qizlar tashkil etdi (12 dan 15 yoshgacha). Bo'yi o'rtachadan pastroq bo'lgan qizlarning ulushi 12 yoshda 20 % dan; 15 yoshda 40 % gacha tashkil qildi va yil sayin ortdi. Bo'y uzunligi o'rtacha ya'ni normada bo'lgan qizlar asosan 12 yoshlilar o'rtasida ko'proq foizni tashkil qildi (33,3 %). O'rtachadan balandroq bo'lgan qizlar 14 yoshda 26,67 % ni

tashkil qilgan bo'lsa, 13 yoshda ular 0 % ulushga ega bo'ldi. Eng kam miqdordagi foiz ulushlar baland bo'yli qizlarga to'g'ri keldi. 12 va 15 yoshda 0 % ni qayd etgan bo'lsa, 13 va 14 yoshda ular 6,7 % ni tashkil qilishdi.

Tana massa indeksi o'smirlarning ovqatlanish statusiga baho beradigan muhim xalqaro ko'rsatkichlardan bo'lib hisoblanadi. Parkent tumanidagi ko'pchilik qizlarda normadagi TMI kuzatildi. Eng yuqori foiz 15 yoshda 73,3 % bo'ldi. Tana vaznining yetishmasligi 12 yoshdan 15 yoshgacha kamayib bordi: 12 yoshda 53,3 %; 15 yoshda 13,3 %. Ortiqcha vazn 12 yoshlilar orasida kuzatilmadi; 13 va 14 yoshlilarda ular 40 % ni tashkil etishdi; 15 yoshda esa 13,4 % o'smir qizlarda ortiqcha vazn kuzatildi.

Xulosa

Shunday qilib, biz Parkent tumani maktab yoshidagi o'smir qizlarning fiziologik rivojlanish xussiyatlarini o'rganib tahlil qildik. O'tkazilgan tajribalarga asoslanib quyidagi natijalar olindi:

Ko'pchilik qizlarning bo'y uzunliklari normaga nisbatan past. Normal bo'y uzunligiga ega qizlar asosan 12 va 14 yoshlilar orasida ko'p foiz ulushni tashkil etishdi. Tana vazni jihatidan o'smirlarning ko'pchiligini normal tana vazniga ega



bo'lganlar tashkil etdi. Normadan kam vaznga ega bo'lganlar asosan 12 yoshda 53,3 % kuzatildi. Normadan ortiq vazn esa 13 va 14 yoshlilarda ko'p foizni tashkil etdi. Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, qishloq sharoitida og'ir mehnatning ko'pligi va ijtimoiy muhit tufayli ko'pchilik qizlarda

bo'y uzunligi normadan pastroq bo'lgan bo'lsa, normal tana vaznli gormonal faol bo'lgan o'smir qizlarning ko'pchilik foizni tashkil etishi ularning faol jismoniy hayot tarzi va sog'lom ovqatlanish rejimiga bog'liq.

References:

1. Аминов А.С. Возрастные особенности гемодинамики, статокINETической устойчивости и метаболических реакций при адаптации учащихся к здоровьесберегающим физическим упражнениям: ДКБН. Челябинск, 2002. - 196 с.
2. Колунин Е.Т. Морфофункциональные показатели подростков 11-16 лет с дизонтогенетическими заболеваниями позвоночного столба: Дисс. . канд. биол. наук / Е.Т.Колунин. Тюмень, 2004. - 180 с.
3. Макарова Л.В., Параничева Т.М., Лукьянец Г.Н., Лезжова Г.Н., Тюрина Е.В., Состояние здоровья и физическое развитие детей 12-13 лет. // Практика педиатра. - 2015.- N. 3. – С. 133-139. с
4. Manfredi-Lozano M., Roa J., Ruiz-Pino F., Piet R., Garcia-Galiano D., Pineda R et al. Defining a novel leptin-melanocortin-kisspeptin pathway involved in the metabolic control of puberty// Mol Metab - 2016-V.5., N 8. P. 44–57.
5. <https://www.dissercat.com/content/morfofunktsionalnye-korrelyatsii-fizicheskogo-razvitiya-i-mineralnoi-plotnosti-kostnoi-tkani>